

BOLALAR DUNYOQARASHINING SHAKLLANISHIDA BADIY ADABIYOTLARNING RO'LI

Umarov Xusniddin

*Guliston Davlat Universiteti Boshlang'ich ta'lim
metodikasi kafedrası Katta o'qituvchisi*

Xolyigitova Baxor

*Guliston Davlat Universiteti Ta'lim tarbiya nazaryasi
(Boshlang'ich ta'lim) 1-bosqich magistranti*

Ergasheva Odina

*Guliston Davlat Universiteti Ta'lim tarbiya nazaryasi
(Boshlang'ich ta'lim) 1-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Maqolada "Badiiy adabiyotni o'qish" ning mazmuni ochib berilgan. Adabiyot o'qishning maqsad va vazifalari bolalarning yoshiga qarab intellektini rivojlantirishning asosiy vositasi sifatida belgilanadi. O'qishning bolaga ta'sirining xarakteristikasi berilgan, ta'lim dasturida "Badiiy adabiyotni o'qish" ni amalga oshirishning amaliy asoslari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, tarix, barkamol avlod, adib, adbiyotshunos, badiiy adabiyot.

Умаров Хусниддин

*Гулистанский Государственный Университет Начальное образование
Старший преподаватель кафедры методологии*

Холыigitova Бахор

*Гулистанский государственный университет Теория образования
(Начальное образование) Магистр 1 уровня*

Эргашева Одина

Аннотация: В статье разъясняется содержание «Чтения художественной литературы». Определены цели и задачи чтения литературы как основного средства развития интеллекта детей в соответствии с их возрастом. Дается описание влияния чтения на ребенка и анализируется практическая основа для внедрения «Чтения художественной литературы» в учебную программу.

Ключевые слова: образование, воспитание, история, гармонично развитое поколение, писатель, литературовед, художественная литература.

O'zbekiston Respublikasi birinchi prizidenti I. A. Karimov o'zining „Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch“ kitobida ma'naviyat masalasiga alohida e'tibor berib: „Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmashligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, dono va albatta, baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi, hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Agar biz bu masalada hushyorlik va sezgirligimizni, qat'iyat va mas'uliyatimizni yo'qotsak, bu o'ta muhim ishni o'z holiga, o'zibo'larchilikka tashlab qo'yadigan bo'lsak, muqaddas qadriyatlarimizga yo'g'rilgan va ulardan oziqlangan ma'naviyatimizdan, tarixiy xotiramizdan ayrilib, oxir-oqibatda o'zimiz intilgan umumbashariy taraqqiyot yo'lidan chetga chiqib qolishimiz mumkin“, — deb yozadi. Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Sahrodagi sayyoh har doim buloqdan chanqog'ini bosadi. Xuddi shuningdek, inson ham necha-necha azoblar va qiyinchiliklar bilan ma'naviy chashmasini izlaydi. Yer, oila, ota-ona, bolalar, qavm-qarindoshlar, qo'niqo'shnilar, xalq, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, vijdon, erkinlik — ma'naviyatning ma'nosi ana shunday juda keng. Inson o'zini xalqining bir zarrasi deb sezgandagina, u haqda o'ylab, o'qib, mehnat qilib yashagandagina ma'naviyat bilan tutashadi. Bunday mas'uliyatli vazifani amalga oshirishda kattalar adabiyotining ajralmas bir bo'lagi

bo'lgan bolalar adabiyotining ham alohida o'rni bor. Xalqda „Adabiyotga e'tibor — ma'naviyatga e'tibor“ degan gap bor.

“Yozuvchi bo'lishdan avval o'quvchi bo'lish kerak”. Bu -aksioma. Zero Abdulla Qodiriy takidlaganidek, “Yozuvchi birovni takrorlab qo'ymasligi uchun ham o'qishi kerak”. Agar tarixga nazar tashlansa, ko'plab buyuk adiblar mutola orqali maxoratini oshirganini ko'rish mumkin. Yer yuzida yashovchi turli millatlar o'rtasidagi madaniy va adabiy aloqalar kecha yoki bugun boshlangan hodisa emas. Mamlakatimizning buguni, kelajak taraqqiyoti ko'p jihatdan yoshlarning intellektual salohiyatiga, vatanparvarligiga bog'liq. Agar ularni sog'lom, bilimdon, xalqparvar qilib tarbiyalasak, shubhasiz, ular Vatan ravnaqi uchun hissa qo'sha oladigan, uning yuksalishiga dahldor bo'lgan barkamol va ijtimoiy faol shaxslar bo'lib shakllanishi muqarrar. Albatta, bu borada biz ta'limning ichiga singib ketgan tarbiyaning beqiyos kuchi va mas'uliyatini his qilishimiz, undan oqilona foydalanishimiz joiz. Yoshlar ongiga va turmushiga odob va axloq haqidagi qarashlarni singdirib borish, bo'sh vaqt tushunchasini hayot tarzlaridan chiqarib tashlashga ko'maklashish, ilm-u ziyoning inson hayotidagi ahamiyati nechog'lik ulkan ekanligini uqtira bilish nihoyatda zarur. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Gap yoshlar tarbiyasi haqida borar ekan, bu borada shoshmaslik, yoshlar va ota-onalarning talab-istaklaridan kelib chiqib, har tomonlama puxta o'ylab ish tutish kerak”, - degan fikrlari har bir pedagogning dasturil amali bo'lishi zarur. Chunki, ta'lim va tarbiya doimo bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Mustaqil O'zbekistonimiz bugungi dunyodagi yetakchi davlatlar safiga kirish yo'lida asosiy kuch yeytishib kelayotgan yosh avlod deb hisoblaydi va bunga ishonadi. Shuning uchun yoshlarning ta'lim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilib berilmoqda. Kelajagi porloq, intiluvchan, izlanuvchan, o'ziga ishongan, mustaqil fikrlovchi yoshlarni tarbiyalashda badiiy adabiyotlarning o'rni beqiyos. Yuqori natijalarga erishish, o'zini namoyon etishdan oldin avvalo kim ekanliklarini, kimlarning davomchilari ekanliklarini, boy ta'riximizni o'rganish uchun kitoblarga murojaat qiladi. Bu borada yoshlarga tavsfiyalarni o'qituvchilar to'g'ri berishi

kerak. Faqatgina milliy adabiyotlarimiz emas, jahon adabiyotining durdona asarlaridan ham o'qib, bilim saviyasini oshirib borish lozim. Kitoblarning tanlanishi odamning fikr dunyosini, uning hayotiy qadriyatlarini ochib beradi (Jim Rohm). Biz pedagoglarning kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni ta'lim-tarbiya olishlari uchun shart-sharoit yaratish, sog`-salomat ulg`aytirish, ularga ota-ona kabi mehr berish oliy maqsadimiz. Bolaning barkamol shaxs bo'lib ulg`ayishida ularning hayotida kitobning hayoti beqiyosdir. Ular qachon kitobga mehr beradi degan savolga yagona javob bor. Qachonki bolalarga o'zlarining dunyo qarashi va yoshiga mos kitob tanlay olsak, bolada kitobga muhabbat uyg'otadi. Aslida, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yosh o'quvchilar o'z adabiyotlarini to'g'ri tanlaganlarida, ular yaxshi o'qiydiganlar bo'ladi.

O'qiyotgan kitobida yashashga, qahramonlar hayotini muhokama qilishga, qahramonlarning yutuqlaridan andoza olishga, xatolaridan to'g'ri xulosa chiqarishga o'rgatadi. Kichkintoylarning dunyoqarashini shakllantirish, ularni to'g'ri yo'lga solishda kitobdan muhimroq vosita yo'q. Shuning uchun ham ota-onalar, o'qituvchilar va kutubxonachilarning birinchi vazifasi yosh avlodda mutolaaga qiziqish va mehr uyg'ota olishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: "O'zbekiston", 2017, 103-105 bet

Mirziyoyev Sh.M Erkin va faravon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. - T.: "O'zbekiston", 2017, 14-15 bet

I. A. Karimov Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. 2013, 5- son, 38-42 bet

Boshlang'ich ta'limning takomillashtirilgan o'quv dasturi. Boshlang'ich ta'lim. 2019, 6- son, 24- 27 bet

Abduqodirov A., Ishmuhammedov R. Ta'limda innovatsiya. - T.: "Iste'dod", 2010